

фиксаторам, леченным эмпирической антибактериальной терапией. Единственным разным фактором в двух видах хирургии была переносимость средств синтеза, большая при интрамедуллярном введении стержня.

Обсуждение

Таким образом, хирургическое лечение диафизарных переломов бедренной кости должно быть зарезервировано для переломов со смещением и крайне нестабильных переломов. Выбор лечения с помощью ТЭГ безусловно, оправдан и имеет ограниченное эмоциональное воздействие по сравнению с внешней фиксацией и должен быть зарезервирован для пациентов меньшего возраста и веса, в то время как лечение с помощью внешних фиксаторов остается первым выбором у пациентов с политравмой и при открытых травмах. переломах, а также при неудаче других попыток гемосинтеза. В отличие от других скелетных областей, существует более точная классификация пределов переносимости деформации бедренной кости и довольно четкое подразделение вида лечения в зависимости от возраста ребенка. . Очень важно соблюдать пределы углов во всех областях.

ЛИТЕРАТУРА:

- 1.Крэнни А., Уэллс Г., Уиллан А. (2002) Метаанализ методов лечения остеопороза в постменопаузе. Метаанализ применения алендроната для лечения женщин в постменопаузе. Эндокринолог 23:508–516
- 2.Папапулос С.Е., Квандт С.А., Либерман УА, Хохберг МС, Thompson DE (2005) Метаанализ эффективности алендроната для профилактики переломов бедра у женщин в постменопаузе. Остеопороз Int 16:468-474
- 3.Крэнни А., Тагвелл П., Адачи Дж. (2002) Метаанализ методов лечения остеопороза в постменопаузе. Метаанализ применения ризедроната для лечения женщин в постменопаузе. Эндокринолог 23:517–523
- 4.Макклунг Мистер, Гейзенс П., Миллер П.Д., Зиппель Х., Бенсен В.Г., Ру С, Адами С, Фогельман И, Даймонд Т, Истелл Р, Менье П.Дж., Реджинстер Дж.Ю. (2001) Влияние ризедроната на риск переломов бедра у пожилых женщин. N Английский J Med 344:333-340
- 5.Уоттс Н.Б., Диаб Д.Л. (2010) Длительное применение бисфосфонатов при остеопорозе. J Clin Эндокринолог Метаб 95: 1555-1565.

KREATIVLIKNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK ASOSLARI

Mamatmurod Xushboqov

Termiz Davlat Pedagogika instituti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Texnologik ta'lim) yo'nalishi 2-kurs
21-21 guruh magistranti.

Annotatsiya: Biz yashayotgan olam kundan -kunga tanib bolmas darajada o'zgaryabti, rivojlanib borayapti. Har bir sohada kun talabiga mos holda ish yuritish talab etilmoqda. Shu jumladan o'sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o'qituvchilarga ham ko'plab talablar va masulyat yuklanmoqda. O'qituvchi zamonaviy o'quvchilar nima bilan yashayotganini tushinishi hamda ularga mos holda bo'lishi darkor.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodiy, stimuly, intellektual, ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, yaratuvchanlik, yondashuv, metodlar, kreativ fikirlash

KIRISH

Hozirgi paytda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o'qituvchining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma'naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create"-yaratish, "creative"yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asosan o'qituvchining kreativligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

"Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlari ni muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan:

- Kreativ fikirlash ko'nikmasini shakllantirish;
- Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish
- Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
- Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Kreativlik yuqumli xususiyatga egadir; kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkun bo'lganiday, kreativ fikirlash qobilyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo'lajak pedagoglarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikirlashga yordam beradi. Biroq, bo'lajak pedagoglarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bo'liq. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak pedagoglarda fikirlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi".

Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish

Bo'lajak pedagoglarni... - qiziqarli; - murakkab vazifalar; - aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash

Bo'lajak pedagoglarga... - kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish; - bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish; - kreativ fikirlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish; - "qutqarib" qolish emas, balki yo'l yo'riq ko'rsatish

Bo'lajak pedagoglarni... - suhbatlar orqali rag'batlantirish; - konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash; - yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish

Bo'lajak pedagoglar... - o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari; - guruhda ishlay olishlari; - hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikirlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish

Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikirlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiyashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar hali hanuz shaxs o'zlarida hamda bo'lajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayaptilar.

Balki darslarni avvaldan o'ylab, rejalashtirib o'tilishi bo'lajak pedagoglar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi bo'lajak pedagoglar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratish zarur.

XULOSA

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikirlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTI:

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. - T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompotentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". -T.: "Fan", 2005.
5. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". - T.: 2003.

MARG'INONIYNING "AL-HIDOYA" ASARI YOZILISH USLUBI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muhammadiyah Gulnoza

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-kurs magistranti

Islom huquqshunosligi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan faqihlar ko'pchilikni tashkil qilgan. Movarounnahrlik faqihlar islom huquqi sohasida ijod qilib, ko'plab kitoblarni yozib qoldirganlar. Burhoniddin Marg'inoniy esa fiqh ilmi rivojiga katta hissa qo'shgan. "Hidoya"ning o'ziga xos xususiyati va yozilish uslubiga ahamiyat beradigan bo'lsak, asarda 4 mazhab tahlili keltirilgan. Shuning uchun ham bu asar boshqa fiqhiy asarlardan to'rt mazhabning dalillarini keltirgani uchun ham xalq orasida mashhur bo'ldi. Ma'lumki, olimlar "Hidoya"ga o'xshash ko'plab asarlar yozganlar lekin ular faqat hanafiy mazhabi bo'yicha yozilgan. Alloma asarining mashhur bo'lishiga ham ayni shu xususiyati sabab bo'lgan. "Hidoya"da o'ziga xos bo'lgan qisqa, aniq misollar yordamida huquq sohalari bayon etiladi. Asarning yozilish uslubi haqida gapiradigan bo'lsak, uning nihoyatda qisqa, turli masalalarning mohiyatini misollarda boshqa mazhablar bilan qiyoslash orqali tushuntirilishi o'ziga xosligini belgilaydi. Shuningdek, asarning yozish uslubi "Sahli mumtani" (oson, sodda, lekin uningdek qilib yozish mumkin emas).⁴⁶ "al-Hidoya" Sharqiy Hindiston shirkati tasarrufidagi Bengaliya viloyati mahkamalari uchun 1776-yil G'ulom Yahyoxon tomonidan fors tiliga tarjima qilinadi. Ushbu tarjima 1807-yil Kalkutta shahrida chop etilgan. Taajjubli joyi shundaki, asar birinchi marta arab yoki fors tilida emas, balki Charls Xamelton tarjimasi asosida ingliz tilida 1791-yil Londonda nashr etilgan. Ushbu 4 jildlik tarjima juda qimmat va noyob bo'lgani uchun 1870-yil S.G.Gariyning nazorati ostida yangi bir jildlik holda chop etilgan. Oxirgi marta inglizcha tarjimasi 1982-yil Lohurda bosmadan chiqqan N.I.Grodekov "al-Hidoya"ni inglizcha tarjimasidan rus tiliga o'g'irgan va u 1893-yil Toshkentda nashrdan chiqqan. Olmoniyalik olim Ekart Shiyvak to'plagan ma'lumotlarga ko'ra, "al-Hidoya"ning mashhur nashrlari quyidagilardan iborat: arabcha asl matni 1818-yil Kalkuttada, so'ngra Bombay, Laknav, Kavnpur, Dehlida chop etilgan. XIX asrda Qohirada, shu asrning oxirida (1888-y.) Qozon shahrida bosilgan. Uning birinchi tanqidiy matni 1908-yil Qohira shahrida nashr etilgan va eng yangi tanqidiy matni ham 1980-yili Qohirada nashrdan chiqarilgan. Hidoyaning ruscha tarjimasi nusxalari kamayib, yo'qolish darajasiga yetgan edi. Shu sababli 1994-yili professor Akmal Saidov tomonidan «O'zbekiston» nashriyotida uning birinchi jildi katta adadda nashr qilinishi muhim va xayrli ish bo'ldi. Asarning boshqa jildlarini nashr etish ham nazarda tutilgan.⁴⁷

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi qoshidagi "Manbalar xazinasini" bo'limi "Qo'lyozmalar fondi"da ulug' alloma — Burhoniddin al-Marg'inoniyning "Kitob al-Hidoya" asari dunyodagi eng qadimiy (XIII asrga oid) nusxalaridan biri saqlanmoqda.

⁴⁶ Yusupova N.J., Juzjoniy A.Sh. Burhoniddin Marg'inoniy: Hayoti va ilmiy merosi. – T.: Akademiya, 2007.-24 b.

⁴⁷ <https://moturidiy.uz/oz/news/1390>

Abdulloh Mallabayev bergan ma'lumotlarga ko'ra, mazkur qo'lyozma nusxa 2003-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi (avvalgi Toshken islom universiteti) ga tuhfa qilingan. Qo'lyozma muqovasining o'lchami 17.5x27.5, varaq o'lchami: 17x27, matn o'lchami esa 12x17 ni tashkil qiladi. Qo'lyozma varaqlarining umumiy soni 457 v. (1a-914b), satrlar adadi esa 25 qatordan iborat. Varaqlari ipakdan ishlangani diqqatga sazovordir. Qo'lyozmaning asl holatini saqlab qolish maqsadida Akademiya tomonidan qayta ta'mir qilingan. Asarning 2b-varag'ida to'rtburchak shaklidagi jadvalga "مذهب علمي الفقه في الهداية كتاب" so'zlari, doira shaklidagi jadvalga esa "الله قدس النعمان حذيفة ابي الاعظم الامام" "الله والحمد وسلم و صحبه وآله محمد الله و صلي و مواه منقلبه الجنة وجعل ضريحه لله" (Bu fiqhda Imomi A'zam Abu Hanifa No'mon (Alloh u zotning ruhini poklasin, qabrini nurga to'ldirsin va borar joyi hamda yotgan maskanini jannat aylasin) mazhabiga muvofiq bo'lgan "al-Hidoya" kitobi. Muhammad (s.a.v.), U zotning oilasi va sahobalariga salovotlar bo'lsin! Hamd yolg'iz Allohgagina xosdir) jumlasini bitilgan. Qo'lyozmaning aksariyat sahifalari hoshiyalarida turli kotiblar tomonidan yozilgan sharhlar, ayrim so'zlarga berilgan tushuntirishlar, to'ldirishlar mavjud. Ayrim sahifalarda matn orasiga ham izohlar bitilgan. Qo'lyozmadagi kitob, fasl nomlari, "ولنا", "ولهما" so'zlari qizil siyoh bilan ajratib ko'rsatilgan. Matn va sharh qora siyohda yozilgan. Matn ustiga qizil siyoh tortilgan. Asar "Kitob ut-tahorat" bobi bilan boshlanadi va "Kitob ul-xunsa" bobi bilan yakun topgan. Nusxaning dastlabki sahifasiga "رهان الإسلام لشيخ الحنفية فروع في الهداية كتاب" (Shayxulislom, millat, haq va din burhoni (jujati Imom Marg'iloniy)ning hanafiy mazhabi furu al-fiqhiga bag'ishlangan "al-Hidoya" kitobi) mazmunidagi yozuv bitilgan. Keyingi sahifada esa muqaddima mavjud. Taniqli olim Abdulhakim Shar'iy Juzjoniyning ta'kidlashicha, Afg'oniston va Hind yarim orolida "Kanz ud-daqiq" va "Muxtasar ul-Quduriy" kitoblaridan keyin, "Kitob al-Hidoya" asarini yetuk ustozdan o'qib tamomlamagan tolib haqiqiy fiqh olimi hisoblanmagan. Demak, bu ham ulug' mutafakkir bobomiz Imom al-Marg'ioniyning "Kitob al-Hidoya" asari muqaddas islom dinini o'rganishda nechog'lik noyob asar ekanidan dalolat beradi. Bundan tashqari, alloma Abulhasanot Muhammad Abdulhay Laknaviy va "Hidoya"ning ayrim sharhlovchilari ma'lumotiga ko'ra, quyidagi asarlar Burhoniddin Marg'ioniy qalamiga mansub bo'lib, tekshiruvchilar orqali ularning qo'lyozmalari borligi aniqlangan:

1. Nashrul-mazhab (Mazhab tarqatish bo'yicha kitob);
2. Kitobu tanosukil-xos, yoki fi-Manosikil-haj (Xaj ibodatiga oid kitob);
3. Kitob fil-faroiz (Meros masalalari haqida kitob);
4. At-tajnis val-mazid (ikkita huquqiy muammolar yechimiga bag'ishlab yozilgan kitob);
5. Muxtorot an-navozil;
6. Kitob majmu'un navozil;
7. "Mazidin fil – Furu'ul Hanafiya" (Hanafiy mazhabi bo'yicha fiqh tarmoqlariga qo'shimcha);

8. Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniyning “Al-jome’ al-Kabir” nomli asarining sharhi;

9. “Kitob ul-muntaqiy”;

10. “Bidoyatul - Muftadiy” (Fiqh ilmiga kirish uchun boshlang’ich kitob);

11. “Kifoyatul - muntahiy” (Tugatuvchini qoniqtiruvchi kitob) – “Bidoyatul-Muftadiy”ga yozilgan 8 jildlik katta sharh;

12. “Al-Hidoya fi Furu’il-fiqh” (Huquq tarmoqlari bo’yicha yo’llanma) – Marg’ioniyning shox asari bo’lib, “Bidoyatul - Muftadiy”ga yozilgan to’rt jilddan iborat sharhdir.⁴⁸ ‘inoniy hukmlarining katta ijtimoiy va ma’naviy ahamiyati shunda ediki, u turli mulk shakllaridan olinadigan soliqlarning aniq shar’iy miqdorlarini belgilab, bu borada yuz berishi mumkin bo’lgan turli zo’ravonlik, beboshlik, adolatsizlikning yuz berishiga imkon bermaydi. Marg’ioniyning zakot va soliq haqidagi chiqargan hukmlari xalqimiz tarixining ma’lum davrlarida katta ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo’lgan. O’z ichki ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida shariat ahkomlariga izchil rioya qilgan Amir Temur ham Marg’ioniy fikrlariga suyangan, hamda ularni o’z ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy masalalaridan biri hisoblagan. Amir Temur Markaziy Osiyo xalqlari davlatchilik tarixida soliq masalasida adolatli ish yuritgan yagona hukmdor bo’lmaganligi, bu masalada Bobur o’z bobokolonining davomchisi sifatida mamlakat boshqarganligi ham bizga ma’lum.

Amir Temur sulolasining davomchisi Bobur ham Marg’ioniyning noshar’iy soliq turlari haqidagi hukmlariga asoslangan, ulardan g’oyaviy ozuqa olgan holda o’rta asrlarda deyarli barcha musulmon mamlakatlarida olinadigan “tamg’a” solig’ini katta jasorat bilan o’z mamlakatida bekor qiladi. Faqih sifatida bu soliqni noshar’iy deb hisoblaydi, podshoh sifatida esa, mamlakat iqtisodiga zarar keltiradi, xalqni og’ir iqtisodiy nochorlikka olib keladi, deb hisoblab davlat nomidan oliy farmon chiqarib, ushbu soliqni bekor qiladi.

Burhoniddin al-Marg’ioniyning “Hidoya” asaridan bolalarga oid ayrim huquqiy masalalar bo’yicha lavhalar “Qaysi bir yosh bola o’n marta haj qilsa, shundan so’ng balog’atga yetsa, unga farz hajini ado etishi shart”. Haj ibodatdir. Ibodatning barchasi yosh bolalardan soqit qilingan. Taklifning mukammal bo’lishi sharti-aqlidir.

“Agar valiy yosh bola va yosh qizni bir-biriga nikohlab qo’ysa, qiz xoh bokira bo’lsin, xoh sayyiba bo’lsin, valiy asaba bo’lgan holatda nikoh joizdir”.

Imom Molik (rahimahulloh) valiy otadan boshqa kishi bo’lgan holatda biz bilan ixtilof qilsalar, imom Shofe’iy (rahimahulloh) esa ota va bobodan boshqa kishilar valiy bo’lgan holatda va qiz sayyib bo’lgan holatda biz bilan ixtilof qiladilar. Molikning so’zlarining ma’nosi shuki: hur ayolga hojat yuzasidan valiylik qilinadi, yosh qizni yoki yosh bolani shaxvoniy hirs bo’lmagani uchun bu o’rinda valiyga hojat yo’q. Otaning valiyligi dalil bilan sobit bo’lgan, qiyosda esa, bunday emas. Bobo ota ma’nosida emas, shuning uchun uni ota

⁴⁸ Qoriev O. “Al-Marg’ioniy- mashhur fiqhshunos” Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti Toshkent-2000

o'rniga qo'yib bo'lmaydi. Biz aytamizki: "Yo'q, u qiyosga muvofiqdir, chunki nikoh qizning foydalarini garovlaydi, foyda esa, odat bo'yicha kelin kuyovning oralarida kufu' bo'lishiga bog'liq. Lekin hamma vaqt ham kufu'ga erishib bo'lmaydi. Shunday ekan, kufu'ni topish uchun yosh bolalarning nikohiga valiy bo'lishi lozim. Shofe'iy so'zlarining ma'nosi shuki, valiylik ota va bobodan boshqa kishilarga topshirilganda, qizning manfaatlariga yetarli darajada ahamiyat berilmaydi, sababi uning qizga nisbatan shafqati oz bo'ladi hamda qarindoshligi ota va boboga nisbatan uzoq bo'ladi. Shuning uchun bu kishi qizga nisbatan eng yaqin rutbada bo'lsa ham uning molidan tasarruf qilishga egalik qila olmas ekan, uning jonida ham tasarruf qila olmasligi aniqroqdir. Bizning fikrimiz: qarindosh-urug'chilik ota va bobolarda bo'lgani kabi qizning manfaatlarini ko'zlashga olib keluvchi omildir. Undagi yetishmovchiliklarni esa, majburlash huquqini yo'q qilish o'rnidagina ko'rsatdik. Moldagi tasarruf esa, bunday emas. Chunki u takrorlanib turadi, shuning uchun halal beradigan ishlarni idrok etishning imkoni yo'q. Valiylik faqatgina buyurish huquqiga ega bo'lgan holdagina foyda beradi, qusurlik bilan esa, majburlash huquqi sobit bo'lmaydi. Shofe'iyning ikkinchi masaladagi so'zlarining ma'nosi budir: sayyibalik qizning jinsiy aloqa haqida tushunchaga ega ekanining sababidir, chunki uning jinsiy aloqa bo'yicha tajribasi bor, shunday ekan, bizlar yengillik bo'lishi uchun hukmni sayyibalik nuqtai nazaridan oldik. Bizning bu masala bo'yicha fikrimiz ham huddi yuqorida zikr qilib o'tganimizning o'zginasidir, u ham bo'lsa, ehtiyojning borligi va shafqatning yetarliligidir. Shunday ekan, bu masalada hukm qizning yoshligi e'tiborga olingan holatda chiqariladi.

Yuqorida aytib o'tgan gaplarimizni Payg'ambar alayhissalomning ushbu hadisleri ham qo'llaydi. "Nikohga valiylik qilish huquqi asobalarga berilgandir". Hadisda hech qanday tafsilot keltirilmagan. Asobalarning nikohga valiylik qilish tartibi xuddi meros olish tartibidekdir. Bunda uzoq qarindosh yaqin qarindosh tufayli to'silib qoladi. (Quduriy) aytadi: "Yosh bola va yosh qizni otasi yoki bobosi uylantirsa yoki turmushga bersa" balog'at yoshiga yetganlaridan keyin, ularda ixtiyor huquqi qolmaydi. Chunki, ota va bobo to'la ongli va farzandlariga nisbatan mehr-shafqatli kishilardir, shunday ekan ularning bevosita ishtiroki bilan nikoh bog'lanaveradi". Shuningdek, balog'atga yetganlaridan keyin ham ularning roziligi bilan nikohga ishtirok etishsa, nikoh bog'lanaveradi. Agar yosh bola va yosh qizning otasi yoki bobosidan boshqa kishilar nikohlab qo'ysa, ular balog'atga yetganlaridan keyin har birining ixtiyori o'zida bo'ladi. Agar xohlasa, shu nikohda qolaveradi, xohlamasa nikohni bekor qiladi". Abu Hanifa va Muhammad (rahimahulloh) nazdlarida shunday. Abu Yusuf esa: "Ota va bobolarga e'tiboran qilingan holatda ularning ixtiyorlari o'zlarida bo'lmaydi", deydi. Abu Hanifa bilan Muhammadning fikricha, akaning qarindoshligi noqisdir. Noqisning shafqati qusurli bo'lishi aniq. Natijada nikohdan ko'zda tutilgan maqsadlarning amalga oshishiga xalal etadi. Maqsadlarning amalga oshishini ta'minlash esa, ixtiyor qilish orqaligina mumkindir. Ota va bobodan o'zga valiylik haqidagi berilgan javobning mutlaq ma'nosi ona bilan qozini ham o'z ichiga oladi. Mana shu rivoyat ishonchliroqdir. Sababi ularning birlarida fikr to'la bo'lmaydi, ikkinchilarida shafqat yetishmaydi. Shuning uchun yoshlarga ixtiyor beriladi. (Quduriy) aytadi: "(Kuyov-qallic

balog'atga yetganlaridan keyin) nikohni bekor qilishlari uchun qozining xukm chiqarishi shart qilinadi". "Agar ulardan (ya'ni, yosh kuyov-qalliqlardan) biri balog'at yoshiga yetishdan oldin o'lib qolsa, ikkinchisi unga merosxo'r bo'ladi".

Balog'atga yetgandan keyin ajralishdan oldin o'lsa ham, bir-biriga merosxo'r bo'ladi, chunki nikohning asli durustdir. Egalik ham nikoh bilan sobitdir. Nikoh ham, egalik ham o'lim tufayli nihoyasiga yetadi. Lekin fuzuliy valiyalar⁴⁹ ishtirok etgan nikohda er-xotindan birlari nikohga ijozat berishdan oldin o'lib qolsa, bunday bo'lmaydi.⁵⁰ Chunki, unday holatdagi nikohning hukmi mavqufdir,⁵¹ bunday nikoh o'lim bilan botil bo'ladi. Yuqoridagi masalada esa nikoh sobitdir. Shunday ekan, hukm shunga qarab chiqariladi.

(Quduriy) aytadi: "Qul, yosh bola va majnun kishi valiylikka o'tolmaydi". Chunki, ular o'zlariga valiy bo'la olmaganlari tufayli ham boshqalarga valiy bo'la olmasliklari aniqroqdir. Nikohdagi valiylik aslida er-xotinning foydalarini nazorat etish uchun joriy qilinadi. Bu yerda sanalgan kishilarga valiylik huquqini topshirish esa, nazorat qilinmagan bilan babbarobardir.

"Emish muddati Abu Hanifa (rahimahulloh) nazdlarida, o'ttiz oydir. Abu Yusuf va Muhammad esa, ikki yil deyishgan". Shofe'iyning gaplari ham shunday. Zufar (rahimahulloh) esa, uch yil deganlar. Chunki yil go'dakni bir holatdan boshqa holatga o'tishi (yil to'rt faslni o'z ichiga olgani) uchun yaxshi fursatdir. Ikki yilga qo'shimcha qilish lozim, buni quyida bayon qilamiz. Qo'shimcha esa, yilga qarab taqdir qilinadi. Abu Yusuf va Muhammadning dalillari ushbu oyat: "Go'dakning homilalik va sutdan ajralish vaqtining muddati o'ttiz oydir". Homilalik muddatining eng ozi olti oydir, demak, sutdan ajraladigan vaqtigacha ikki yil qoldi. Payg'ambar alayhissalom ham: "Ikki yildan keyin emish yo'q", deganlar. Abu Hanifaning dalillari ham yuqorida keltirilgan oyatdir.

Lekin uning talqini shundayki, Alloh taolo ikki narsani zikr etib, ularga bir muddatni keltiradi. Shunday ekan, bu muddat u narsalarning har biriga alohida-alohida to'liq taalluqli bo'lib, xuddi ikkita qarzga bitta vaqt belgilanganga o'xshaydi. Faqatgina, ikkisidan birida (ya'ni, homilada) muddatni noqis qiluvchi narsa bor⁵².

Ikkinchisida esa, muddat zoxirligicha qolaveradi. Shuningdek, bola sut bilan o'sishdan to'xtatishi uchun ovqati o'zgarishi shart. Bu esa bolaga boshqa ovqatni yeyishga odatlanishi uchun kerak bo'lgan muddatni qo'shimcha qilish bilan bo'ladi. Shunday ekan, bu muddat homilaning eng oz muddati bilan taqdir qilinadi. Chunki, bu muddat bolaning ovqatini o'zgartirishga kifoya etadi. Darhaqiqat, homilaning ovqati emizikli bolaning ovqatidan o'zgacha, xuddi shuningdek, sutdan ajragan bolaning ovqatidan ham o'zgacha. Yuqoridagi hadis emishga mustahiq bo'lgan muddatga tegishlidir. Binobarin, Qur'ondagi ikki yil deb qayd qilingan oyat ham mana shu muddatga taalluqli qilinadi.⁵³

⁴⁹ "Fuzuliy valiy" degani kelin yoki kuyovning qarindoshi bo'lmagan begona xolis kishidir.

⁵⁰ Ya'ni, biri ikkinchisiga merosxo'r bo'lmaydi.

⁵¹ Ya'ni, nikohni bog'lanishi er xotinning ijozati bilan bo'ladi. Er va xotinning vafot qilishi bilan nikoh nihoyasiga yetadi.

⁵² Noqis qiluvchi narsa Oyisha onamizning (r.a) ushbu hadislaridir: "Bola onasining qornida ikki yildan ortiq turmaydi".

⁵³ D.Karimova. O'zbekiston hududida bola huquqlari genezisi, evolyutsiyasi va uning istiqbollari. -Toshkent. 2017.

Xulosa qilib shuni ta`kidlash joizki, Movaraunnahr huquqiy maktabining yetakchi olimi Burhoniddin Marg`inoniyning siyosiy va huquqiy qarashlari dunyodagi ko'pgina olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. U huquqiy sohadagi adolatlilik va qonuniylikning yorqin timsoli sifatida doimo o'rganiladi. Ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy, huquqiy me'rosni o'rganmasdan turib biror-bir masalaga yechim topish amrimahol. Chunki huquqiy asos jamiyatning boshqa barcha sohalari taraqqiyoti mezonidir. Zero tarixni bilmasdan turib kelajakni yaratib bo'lmaydi. Shuningdek, Burhoniddin Marg`inoniy fiqh bo'yicha asosiy asari «Bidoyat ul-mubtadi'» («Boshlovchilar uchun qo'llanma»)ni hanafiya nazariyotchisi, shariat asoschilaridan Abul Hasan al-Quduriy va Muhammad ash-Shayboniy asarlariga tayanib yozganini hamda undan amaliy jihatdan foydalanish qiyin bo'lganligi sababli alloma 8 jildli sharh — «Kifoyat ul-Muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta'limot»)ni yozishga qaror qilganini va keyinchalik bu kitobi asosida «Kitob al-Hidoya» (qisqacha nomi «Hidoya» - «To'g'ri yo'l»)ni yaratganini bilib oldik. Bundan tashqari, Burhoniddin Marg`inoniy bu kitobda o'sha zamonlarda mo'min-musulmonlar duch keladigan dolzarb hayotiy masalalar, jumladan oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burch va mas'uliyatlariga taalluqli juda ko'p murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtai nazaridan hal etib bergan.

1.1. BURHONIDDIN MARG'INONIYNING "AL-HIDOYA" ASARI MUHIM FIQHIY MANBA

Muhammadiyah Gulnoza

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-kurs magistranti

O'rta Osiyoda fiqh sohasini rivojlanishida Burhoniddin Marg'inoniyning o'rni beqiyos hisoblanadi. Buyuk faqih va imom 1123-yilda Rishtonda tavallud topgan. Dastlab otasi Abubukr ibn Abduljalildan, so'ng buyuk alloma Simom Bahouddin Ali ibn Muhammad Asbijobiydan tahsil olgan. Manbalarda aytilicha: "al-Marg'inoniy o'z oilasi tarbiyasida o'sib, eng mashhur va iqtidorli olimlardan dars olib, yuksak iste'dodi va izchil faoliyati tufayli Hanafiy mazhabi bo'yicha buyuk faqih va mujtahid darajasiga ko'tarilib, shayxul-islom laqabiga sazovor bo'ldi".⁵⁴ U al-Quduriy va Muhammad ash-Shayboniy asarlarini o'rganib, "Bidoyat ul-mubtadi'" ("Boshlovchilar uchun qo'llanma") asarini yozdi. Ammo bu asarni foydalaniuvchilar amaliy jihatdan qo'llashi juda qiyin edi. Shu sababli, u "Kifoyat ul-muntahiy" ("Yakunlovchilar uchun tugal ma'lumot") nomli asar yozdi. Keyinchalik bu kitob asosida "Kitob al-Hidoya" asarini yaratdi. "Hidoya"da huquqiy masalalarning yechimi dastlab yirik fiqh olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflar e'tirozlari yoki qo'shilishlarini izhor etish yo'li bilan berilgan. Ana shu obro'li mualliflar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan masalada eng ma'qul yechimni tanlab olish yo'liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi ham asoslab keltiriladi.⁵⁵ Uning fiqh ilmida mashhur bo'lishi, buyuk nazariyotchi va shariat asoschilaridan biri al-Quduriyning asarlarini mutolaa qilishi asosida amalga oshdi.⁵⁶ Abdulhay Naknaviy: "Uning nasabi Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuga borib taqaladi", deb ta'kidlagan. U allomani madh qilib, quyidagi iboralari bilan tanitadi: «Imom al-Marg'inoniy faqih, Qur'on hofizi, muhaddis, mufasssir, barcha ilmu fanni o'rganib o'zlashtirgan iqtidorli ustoz, o'tkir nazar bilan tekshiruvchi va diqqat bilan ish yurituvchi zohid, muttaqiy, mahorat va fazilatlar egasi, usuliy ilmu adabda misli ko'rilmagan adib va shoir, ilmul-xilof va mazhab sohalari bo'yicha yuksak salohiyatga ega bir zot edi».⁵⁷ Abu Farros al-G'assoniy "Hidoya" muallifining tarjimai holi haqida yozilgan "Favoidul bahiya"da shunday yozganlar: "Hidoya" sohibini Kamol Boshu, o'zining yorqin fikri bilan ba'zi rivoyatlardan ba'zisini afzal ekanini ajratishga qodir bo'lgan "Ashobi tarjih"da ular tabaqasidan deb zikr qilganlar. Ushbu so'zlari davomida Burhoniddin Marg'inoniy qozixon darajalaridan past bo'lmaganini ta'kidlab: "Dalillarni topish va masalalarni yechishda katta qobiliyat egasi bo'lmish bu kishi, mazhabdagi mujtahidlikka haqliroqdir", deya Burhoniddin Marg'inoniy mazhab

⁵⁴ Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi "Toshkent Islom universiteti" nashriyoti, 2002 yil, 182-196 betlar.

⁵⁵ <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/burhoniddin-marginoniy-hidoya-va-boshqa-asarlaridan-parchalar.html>

⁵⁶ Hoji Ismatulloh Abdulloh "Markaziy Osiyoda islom madaniyati". "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2005 y.

⁵⁷ "Hidoya" kitobi. 1- juz 1990 yil. Bayrut: Ilmiy kitoblar uyi, 3-bet.

mujtahidlaridan sanashlikni sog'lom aql egasining ishi deyдилar.⁵⁸ "Hidoya" to'rt juzdan iborat bo'lib: Birinchi juzga ibodat masalalari kiritilgan, bular: tahorat, namoz, ro'za, zakot va haj kitoblaridir. Ikkinchi juzga nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo'qolganlar, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalar kiritilgan. Uchinchi juzda esa oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o'tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da'vo, iqrор bo'lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo'lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg'a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, voliylik (patronat), majbur qilish, homiylik, qisman ozod bo'lgan qullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o'rin olgan.

To'rtinchi juzda esa shafolat, meros taqsimlash, dehqonchilik hamda bog'dorchilik xususida shartnoma, qurbonlikka so'yiladigan jonzod haqida, umuman qurbonlik qilish haqida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq yerlarni o'zlashtirish xususida, taqiqlangan ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to'lash, vasiyat kabi masalalar yoritilgan. "Hidoya"da shariat qoidalarining aynan o'zigina emas, balki ularning mukammal asos va dalillari ham asl ravishda berilgan. "Hidoya" so'zi arabchadan tarjima qilinganda, yo'llanma degan ma'noni bildiradi. Asarning to'liq nomi "Hidoya fi furu' al-fiqh" — "Fiqh sohalari bo'yicha yo'llanma") bo'lib, hanafiylikda muhim fiqhiy manba hisoblanadi. Bu asar 13 yil davomida yozilgan. Qo'llanmani yaratishda Qur'on oyatlariga, sahobalar va tobe'inlarning rivoyatlariga, hadislar, mazhab asoschilarining asarlariga tayanilgan. "al-Hidoya" asari 4 jild, 57 kitob, 165 bob, 152 fasldan tashkil topgan.⁵⁹ Burhoniddin Marg'inoniyning "al-Hidoya" asari yozilish uslubi bo'yicha boshqa fiqhiy asarlardan ajralib turadi. Unda huquqiy masalalarning yechimi mashhur faqihlarning fikrlarini bayon qilish va unga boshqa fiqh olimlarining e'tirozlarini bildirish bilan berilgan. Shundan kelib chiqqan holda, huquqiy muammoning eng ma'qul yechimini tanlab olish mumkin bo'lgan. Asarda faqatgina shariat qoidalari emas, balki ularning asos va dalillari ham keltirilgan. Asar bir necha asr davomida ko'p musulmon mamlakatlarida huquqshunoslik bo'yicha asosiy manba hisoblangan. 20-asrning 20-yillarigacha qozilar sudi bekor qilinib, sho'rolar sud tizimi joriy qilinguncha amalda bo'ldi. U bir qancha musulmon mamlakatlari oliy o'quv yurtlarida darslik sifatida o'qitiladi. Bu asar bir necha tillarga tarjima qilingan. Yurtimiz qadimdan ilm-fan taraqqiy etgan mintaqalardan biri bo'lgan. Bu o'lkada buyuk allomalar yetishib chiqib, jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shganligini butun dunyo e'tirof etadi. Islom dini kirib kelganidan so'ng, diniy ta'limotlar qatorida fiqh ilmi ham rivoj topdi. Fiqh (arabcha — bilish, tushunish) - musulmon huquqshunosligi, shariat qonun qoidalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi islom ta'limotining bir sohasi hisoblanadi. Fiqh so'zi dastlab Qur'oni Karim va hadislarda atama sifatida qo'llanilgan. Zayd ibn al-Hasanning "Majmu' al-fiqh", Molik ibn Anasning "al-

⁵⁸ Mahmud Sulaymon al-Kafaviy "Katoib al-`lom al-axir fi tabaqot al-fuqaho ma mashayix mazhab an-No'mon"
O'zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi, inv. Raqam 29.29.

⁵⁹ <https://n.ziyouz.com/books/tarixiy/Nodirbek%20Abdulohatov,%20Tolibjon%20G'oziyev.%20Bu>

Muvatto’”, Ibn Hanbalning “al-Musnad” kitoblari fiqhga oid dastlabki asarlar hisoblanadi.

X asrga kelib fiqh ilmi fan sifatida shakllandi. Aynan shu davrda, Movarounnahrda Burhoniddin Marg’inoniy, Abu Lays Samarqandiy, Abu Zayd Ubaydullo Dabusiy va boshqa buyuk fiqhshunos olimlar yetishib chiqqan. Fiqh ilmi islom huquqshunosligi sifatida ikki sohaga — shariat manbalarini ishlab chiqish (usul al-fiqh) va shariatni tayin sohalariga tatbiq etish (furu’ al-fiqh)dan iborat bo’lgan. O’rta asrlarda va yangi davrda fiqhga oid asarlar orasida fatvo to’plamlari ko’paydi. al-Quduriyning “Muxtasar”, Qozixonning (1196 y. vafot etgan) “Fatovo”, Burhoniddin Marg’inoniyning “Hidoya”, Ibn Bazzozning “Fatovo” asarlari bunga misol bo’ladi. Ular ichida “Hidoya” asari hanafiylik mazhabida katta shuhrat qozongan amaliy qo’llanmadir.⁶⁰ Alloma fiqhiy masalalarni yoritishda qiyosiy uslubdan foydalanadi, turli mazhablardagi nazariyalarni bir-biri bilan solishtiradi. Avval, Qur’on, so’ngra Sunnaga asoslanadi, undan keyin ijmo’ va qiyosga o’tadi. Qiyos muammoni hal etishda yordam bermasa, istehsonga (qiyosi hafiyya) o’tadi. Yechimi topilmagan ahvolda urfu odatga tayanib, xulosa chiqaradi. Marg’inoniy istehson va huquqiy istidloldan keng ko’lamda foydalanadi va o’z xulosalarini mantiqiy istidlol bilan mustahkamlaydi. Uning fikricha, aql va idrok ma’rifatning asosi bo’lsa ham, faqat aqlning o’zi bilan doimo ishonarli bilim hosil bo’lmaydi. Aql chegaralangan imkoniyatga ega bo’lganligi sababli uni shariat mezoni bilan o’lchash zarur bo’ladi. Aql har doim ham haqiqatga olib borishi mumkin emas. Shuning uchun u aqliy manba sifatida qiyosga katta e’tibor qaratadi. Ayniqsa, ko’p o’rinlarda istehsondan foydalanadi. Istehson va urfga tayanish huquqiy muammolarni hal etishda keng imkoniyat ochib beradi. U ibodatlardan tashqari insonlarning amaliy hayotiga tegishli bo’lgan huquqiy masalalarni, boshqa dalillar bilan birga, ushbu mezon bilan ham baholaydi. Mantiqiy tahlildan o’tkazadi. U istiqro(deduktsiya) va ilmiy tahlildan (analiz) keng foydalanadi. Har bir masalani turli mazhablar orasida qiyosiy uslubda o’rganib, xulosa chiqaradi va eng ma’qul deb topgan fikrini tahlil oxirida zikr etib, uni ustun qo’yadi. Shu sababli «Al-Hidoya» islom huquqining falsafiy tahlili deb atalsa o’rinli bo’ladi.⁶¹

Nigora Yusupova “Burhoniddin Marg’inoniyning “Hidoya” asari muhim fiqhiy manba sifatida” nomli maqolasida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: Bugungi O’zbekiston davlati va huquqining poydevori – milliy davlatchilik asoslari juda qadim va mustahkam bo’lib, ko’p asrlik tarixga ega. Mintaqamizning boy madaniyati asrlar davomida ajdodlarimizning ijodi bilan takomillashdi, boyidi va taraqqiyotning yuksak pog’onalariga ko’tarilib, butun bashariyat uchun bebaho meros bo’lib qoldi. O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqda quyidagi fikrni bildirgan edi: “O’tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan qancha avlodlarning ma’naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta’sir ko’rsatmoqda”.⁶² Asrlar davomida turli mamlakatlarda yuzlab olimu ulamolar islom huquqshunosligi bilan mashg’ul bo’lib kelgan. Jumladan,

⁶⁰ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fiqh>

⁶¹ A.Sh.Jo’zjoniy, N.J.Yusupova. Burhoniddin Marg’inoniy: Hayoti va ilmiy merosi. – T., “Akademiya” nashriyoti, 2007. 18-b.

⁶² Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura.-T., O’zbekiston, 1996.- 40-41 b.

Movoraunnahrlik faqihlar o'z asarlari va huquqiy nazariyalari bilan islom huquqi sohasida ulkan ishlarni amalga oshirgan va fiqh ilmining har tomonlama rivoj topishiga ulkan hissa qo'shgan. Faqihlar mujtahidlardan so'ng nafaqat taxrij va tarjih zamoni, balki taqlid davrida ham islom huquqshunosligini takomillashtirish yo'lida faxrlanishga arzigulik ilmiy muvaffaqiyatlarga erishgan. Ular kalom va huquq sohasida yangi fan va maktablarga asos solish bilan birga, yangi huquqiy nazariyalarni ham yaratgan. XII asrda Movarounnahrda fiqh ilmi rivoji uchun ta'sirchan omillar yuzaga kela boshladi. Ulardan biri, A.Mo'minov fikricha, Qoraxoniylar davlati qaror topishi natijasida "Movarounnahrning Xuroson bilan aloqalari zaiflashib, oyoqqa turgan mahalliy maktablarning mustaqil rivojlanishiga asos yaratilganidir. Markaziy shaharlarda avtonom boshqaruv kuchayishi ulamolar ta'sir doirasining kengayishiga olib keldi. Bu bilan fiqh normalarini hayotga tatbiq etishga real sharoit yaratildi. Buxoro va Samarqand haqiqiy ilm markazlariga aylandi. Bu shaharlarda nasaflik, marvlik va farg'onalik faqihlar ham faoliyat ko'rsatardi".⁶³ Turk tadqiqotchilarining xulosasiga ko'ra, bu davrda 300ga yaqin faqih yashagan va 150dan ko'proq fiqhiy (huquqiy) asar, 20ta fatovo (fatvolar majmuasi) yozilgan, ularning asosiy qismi hanafiy mazhabiga tegishli bo'lgan. Bu davrda yaratilgan bebaho asarlardagi ma'lumotlarni hanafiy fiqhining an'anaviy qobig'iga kiritish 3 yo'l bilan amalga oshirilgan:

1) Muhammad ibn Hasan Shayboniyning "Zohirur rivoya" turkumidagi asarlariga sharhlar yozilgan;

2) fiqh ilmiga oid yangi kitoblar tuzilgan;

3) avvalgi davr va zamondosh faqihlarning fatvolari to'plamlarga yig'ilgan.

Bu ishlarni umumlashtiruvchi darslik sifatida Marg'inoniyning "Kitobul Hidoya fi sharhil Bidoya" asari paydo bo'ldi.⁶⁴ U ixchamligi, mukammalligi, hanafiy mazhabini boshqa sunniy mazhablar bilan qiyosiy o'rganib, har tomonlama yoritgani uchun o'ziga xos nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Burhoniddin Marg'inoniy hanafiy mazhabining sanoqsiz huquqiy masalalarini hal qilish yo'lini topishga muvaffaq bo'ldi. U mustaqil ijtihod qilish vakolatiga ega bo'lmasa ham o'z ilmiy-huquqiy asarlarini yaratishda qiyosdan (qiyosi jaliydan), ayniqsa qiyosning ikkinchi turi bo'lmish "qiyosi xafiy" yoki "istihson"dan keng foydalandi.⁶⁵ Shuning uchun ayrim olimlar Marg'inoniyning "Mujtahid fil mazhab", mazhabdagi mujtahid deb bilgan.⁶⁶ Marg'inoniyning fikricha, bilim uch manbadan hosil bo'ladi. Birinchisi – nass. U shar'iy hukm manbai bo'lmish Qur'on oyatlari va Payg'ambar (s.a.v.)ning hadisi shariflaridir. Ikkinchisi – aql va tafakkur, uchinchi – his-tuyg'u (sezgi) organlarida hosil bo'ladigan ma'lumotlar. Alloma "Hidoya"da fiqhiy masalalarni yoritishda qiyosiy uslubdan foydalanib, turli mazhabdagi nazariyalarni solishtirgan. Avval, Qur'on, so'ng sunnatga asoslangan, keyin ijmo va qiyosga o'tgan. Qiyos muammoni hal etishda yordam bermasa, istihson (qiyosi xafiy)ga o'tgan. Yechimi topilmagan holatda urf-odatga

⁶³ Mo'minov A. Movarounnahr ulamolari: hanafiylar // Sharqshunoslik. №9 /1999.-42 b.

⁶⁴ Mo'minov A. Movarounnahr ulamolari: hanafiylar // Sharqshunoslik. №9 /1999.-42 b.

⁶⁵ Toshqulov, J., Yusupova N., Bekmirzayev I., Sarsenboyev O., Masaidov S. Islom huquqshunosligi. O'quv qo'llanma. – T.; Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2014.- 90 b.

⁶⁶ Yusupova N.J., Juzjoniy A.Sh. Burhoniddin Marg'inoniy: Hayoti va ilmiy merosi. – T.: Akademiya, 2007.-18 b.

tayanib, xulosa chiqargan. Qiyos, istihson va urfga tayanish huquqiy masalalarni hal etishda Marg'ioniyga katta imkoniyatlar ochib bergan. Alloma ibodatlardan tashqari insonning kundalik hayotiga tegishli huquqiy masalalarni boshqa dalillar bilan birga, o'ziga xos mezonlar orqali ham baholagan. Mantiqiy tahlildan o'tkazgan. Istiqro (deduksiya) va ilmiy tahlil (analiz)dan keng foydalangan. Har bir masalani turli mazhablar orasida qiyosiy uslubda o'rganib, xulosa chiqargan va eng ma'qul deb topgan fikrini tahlil oxirida zikr etib, shuni ustun qo'ygan. Shundan xulosa qilib "Hidoya" islom huquqining falsafiy tahlilidir, desak, to'g'ri bo'ladi.⁶⁷

"Hidoya" Marg'ioniyning shoh asaridir. Buni uning zamondoshlari ham e'tirof etgan. Xususan, Xaddod: "Hidoya ham Qur'on singari shariat bo'yicha o'zidan avval yozilgan kitoblarni e'tibordan qoldirdi",⁶⁸ degan. Asar 13 yil davomida yozilgan. Buning sababi: birinchidan, "Bidoyatul muftadiy"ga Imom Muhammad Shayboniyning "Jomius sag'ir" va Quduriyning "Muxtasar" asarlari asos qilib olingan. "Bidoyatul muftadiy"da minglab far'iy masalalar mavjud bo'lib, ular orasida insonning kundalik hayotiga bog'liq, o'z yechimini topmagan ko'plab muammolar ko'p edi. O'sha davrning o'zgaruvchan sharoitini sinchiklab o'rganish, birinchi darajali muammolarni ikkinchi darajalisidan ajratib olib, ularni yechish yo'llarini belgilab berish muallifdan katta diqqat-e'tibor, har tomonlama sinchkovlik va chuqur kuzatishlarni talab qilardi. Ikkinchidan, Burhoniddin Marg'ioniy fiqh ilmi bosib o'tgan olti davrning (Payg'ambar alayhissalom, sahobalar, tobeinlar, mujtahidlar, muxarrijlar va muqallidlar) beshinchi bosqichi bo'lmish muxarrijlar (avval o'tgan mujtahid va buyuk huquqshunos olimlar asarlariga murojaat qilish orqali mazhab doirasidagi yangi murakkab huquqiy muammolarni yechish yo'llarini topuvchilar) zamonida yashagani uchun ijthod qilish vakolatiga ega emas edi. Chunki IV hijriy asrning boshida (milodiy X asrda) hech kimda islom huquqi bo'yicha ijthod qilish vakolati yo'q, degan fikr bor edi. Huquqshunoslik bo'yicha barcha faoliyat buyuk olimlar belgilab bergan asosiy qonun-qoidalarni izohlash, tafsir etishdan iborat bo'lishi kerak, degan qarash mavjud edi.⁶⁹

Lekin Abdulhay Laknaviy "Favoidul bahiya" asarida hanafiy mazhabi olimlarini olti guruhga bo'lib, Burhoniddin Marg'ioniy va Quduriyini "as'hobut tarjih", ya'ni ba'zi rivoyatlarni ba'zilaridan tarjih berish (ustun qo'yish) salohiyatiga ega olimlar qatorida zikr etgan. Burhoniddin Marg'ioniyda turli mualliflar yozgan ko'plab fatovolar (huquqiy majmualar) bor edi. Ularda minglab masala, ayrim muammolar bo'yicha o'nlab mulohaza, hatto bir-biriga qarama-qarshi nazariyalar ham mavjud edi. Muallif biror huquqiy masalani yoritish uchun, birinchidan, shariatning asosiy manbalari, undan keyin Abu Hanifa, Imom Molik, Imom Shofi'iy, Imom Ahmad ibn Hanbalning asarlari, Shayboniyning "Zohirur rivoya" kitobi, Abu Yusufning "Kitobul xiroj", "Adabul qoziy", "Abu Hanifa va Ibn Abu Laylo o'rtasidagi ixtiloflar", "Avzoiy va Anas ibn Molikning ayrim huquqiy masalalar bo'yicha bildirgan fikrlariga yozilgan raddiya" kitoblari, Imom Zufar asarlari, shuningdek, islom

⁶⁷ Yusupova N.J., Juzjoniy A.Sh. Burhoniddin Marg'ioniy: Hayoti va ilmiy merosi. – T.: Akademiya, 2007.-18 b.

⁶⁸ Muhammad Abdulhay. Hidoya muqaddimasi sifatida yozilgan risola. – Lakhnau: 1394 h.y.-3 b.

⁶⁹ Majid Xadduriy, Xerbert Lebisni. "Islomda huquq", Tehron – Nyu York, 1958.-105 b.

huquqiga oid son-sanoqsiz kitob va to'plamlarni o'qib chiqib, ularda bildirilgan fikr-mulohazalarni bir-biri bilan solishtirib, asosli xulosalar chiqarishi kerak edi.⁷⁰

Aniq bir uyin qoidasini qisqacha mazmuni va ahamiyati aytib berilgandan so`ng, yuqoridan ikki qo`l bilan to`pni yetkazib berish, uni bajarish usuli (texnikasi) namoyish qilinadi va o`quvchilarga ham shu usulni bajarishga imkon beriladi. So`ngra muammoli savol qo`yiladi: “qo`l (panjalar) bilan to`pning to`qnashishi qaerda amalga oshadi?”. Javob berishga harakat qilingan ko`pgina urinishlarda biz quyidagi javobni aytishimiz amri mahol: yuzamiz qarshisida. So`ngra yangi savollar beriladi, “Nega to`pni uzatayotganda qo`llar tirsakdan bir oz bukiladi? Ularning bukilishi burchagini nima belgilaydi?”.

O`quvchilarning yuqoridagi savollarga javob qidirishida ularning kuch-g`ayratini biomexanik qonuniyatlar tomon yo`naltiriladi, shunga ko`ra, savolning birinchi omiliga javob maqsadga eng qisqa masofa tanlash bilan erishish bo`lsa (fazoviy nuqtai nazardan), ikkinchidan to`p uzatuvchining kuchlilik-tezkorlik imkoniyati darajasidir. Yuqoridagi talablar asosida yana bir bor to`p uzatishni bajarishni taklif qilamiz. Bizni vaqt ko`p sarflanayotgani qiziqtirmaydi, chunki u kelajakda o`zini oqlaydi.

Demak, biz tamonimizdan olib borilgan tadqiqot samaradorligi o`z isbotini topdi. Shuni ham aytish zarurki, harakat texnikasini o`zlashtirish muddati bolaning oilaviy sharoitiga, uning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatiga hamda ruhiy holatiga bog`liqdir. Dastlabki o`rgatish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi va bu bosqichlarni xar biri o`ziga xos uslub va vositalarni o`z ichiga oladi.

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar o`yinchida jismoniy barkamollik va o`yinchi uchun zarur bo`lgan harakat ko`nikmalari va malakalarini sayqallash uchun foydalaniladi.

Tadqiqot guruhlaridagi natijalarning nazorat guruhlaridagi natijalarga qaraganda ancha yuqori ekanligi tanlangan uslubning samarali ekanligini ko`rsatadi.

Tadqiqot davomidagi barcha mashqlar o`z yo`nalishiga mos ravishda birlashgan holda mashq qilishning maxsus tayyorgarligi asosiy qismlarini tashkil etadi: umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik, o`yin tayyorgarligi. Xar bir tayyorgarlik turida o`zining yetakchi omillari borki, ular yordamida ko`zlagan maqsadga erishiladi. Shu bilan birga barcha turdagi tayyorgarliklar bir-biri bilan uzviy bog`liq. Misol uchun agar o`quvchi jismoniy yaxshi tayyorlanmagan bo`lsa, u xujumda zarba berish texnik mashqni yaxshi bajara olmaydi. Bunday holda o`quvchini jismoniy tomondan chiniqtirish, zarba berish usulini ko`p marta takrorlashdan ko`ra foydaliroqdir.

XULOSA

Jismoniy tarbiya darsi bo`yicha amaliyotga tavsiya etilayotgan maxsus ishlab chiqilgan mashqlardan o`quv yilining barcha choraklarida hamda yilning barcha mavsumlarida ochiq va yopiq sport inshootlarida o`tkaziladigan mashg`ulotlarda muntazam foydalanish, jismoniy tarbiyani jarayonini ommaviy shakllanishiga turtki bo`ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахметов С.М. Методика физической подготовленности школьников в зависимости от уровня их физического развития; Автореф. дис.... канд. пед, наук. - Краснодар, 1996. - 21 с.
2. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O'quv qo'llanma. O'zDJTI, T.: 2005, 171 b.
3. Железняк Ю.Д. Юный волейболист, М., 1988 г., 190 с.
4. Железняк Ю.Д., Слупский Л.Н. Волейбол в школе, Пособие для учителя, М., 1989 г., 128 с.

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Quronboyeva Sabohat Shokir qizi
Raximova Maftuna Bahodir qizi
UrDU Jismoniy madaniyat talabalari

Annototsiya: *Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy harakatini rivojlantirish uslubiyati ustida ish olib borilgan, maktab dasturidagi adabiyotlar o'rganilib, yangi metodika ishlab chiqildi va maktab yoshidagi bolalarning jismoniy harakatini rivojlantirishga erishildi.*

Kalit so'zlar: *Dars, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, umumiy jismoniy tayyorgarlik, mashq, harakat.*

Annotation: *Work was carried out on the methodology for the development of physical activity of school-aged children, the literature of the school program was studied, a new methodology was developed, and the development of physical activity of school-aged children was achieved.*

Key words: *Lesson, physical education, physical development, general physical fitness, exercise, movement.*

KIRISH

Maktab yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini rivojlantirish bo'yicha turli adabiyotlarda bolalarning jismoniy va irodaviy harakat tayyorgarligi jarayoni mazmuni bir xil talqin etilmaydi. Masalan: Levi Gorinevskayanining fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun murakkabroq umumjismoniy mashqlar, 1-sinif dasturiga yaqin bo'lgan va unga tayyorlaydigan mashqlar tanlab olinadi.

Ayni vaqtda kichik maktab ta'lim muassasasidagi jismoniy tarbiya vazifalarida kichik yoshlardan boshlab jismoniy sifatlarni maqsadli yo'naltirish zarurati to'g'risidagi mulohazalarning yo'qligi e'tiborni tortadi. Faqat tayyorlov guruhi uchun dasturda chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va kuchni takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi haqidagi muayan eslatma paydo bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar organizmi ikkita muhim xususiyatga ega, ularni bilish maktab o'qtuvchisiga jismoniy sifatlarni tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli yechish imkonini yaratadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda yurush, yugurish, sakrash, uloqtirish, konkida yurush yugurush, suzish hayot uchun kerak bo'ladigan eng oddiy harakat malakalarni rivojlantirishdir. Bu harakatlarni bolalar tez o'zlashtiradi, sababi-ularning asab tizimi yuqori darajada egiluvchandir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarga mashq berishdan oldin ularga o'sha mashqlarni ahamiyati, bajarish texnikasi, harakatli o'yin qoidalari tanani tarbiyalashni ayrim elementlari haqida tushuncha berib borish lozim.

Mazkur maqsadni ro'yobga chiqarish uchun ularda, odatda, jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlardan iborat bo'lgan keng o'quv materialini taqdim etilgan.

Asosiy qism. Pedagogik jarayonlarni rejalashtirish va uning mazmuni maktab yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasini rivojlantirish ustidagi tajribalarni rejalashtirish maktab dars sxemasi asosida amalga oshirildi va to'rt hafta mobaynida maktab yoshidagi bolalar shu maqsadda maxsus harakatli o'yinlarni izchillik bilan bajardilar, va ular jismoniy harakat orqali jismoniy tayyorgarligini uyg'unlashtirishgan edi. Masalan tezkorlik qisqa masofaga yugurish davomidagi harakat suratining tempi o'stirildi. To'rt hafta mobaynida bolalar jismoniy tarbiya orqali jismoniy harakatining rivojlantirishga qaratilgan harakatli o'yinlarni kamida 12 marta bajardilar.

Statistik ishlov berish natijasida 7-8 yoshli bolalar tomonidan nazorat mashqlarining bajarilish ko'rsatkichlarini testlash nazariyasi talablariga muvofiq, ravishda ularning jismoniy tayyorgarlik holatini baholash uchun qizlar va o'g'il bolalardan iborat ikkita yosh guruhlarining har biri uchun 4 ta test tanlab olindi.

Har bir yosh - jins guruhida testlar mazmuni alohida xususiyatlarga ega edi. Masalan, 7 yoshli qizchalarning egiluvchanligini tavsiflash uchun quyidagi testlardan foydalanildi: chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarish ; 7 yoshlilar uchun oldinga orqaga umbaloq oshish; 8 yoshlilar uchun 30m ga yugurish; 8 yoshlilar uchun ko'priq hosil qilish. Demak, barcha yosh guruhlari uchun berilgan testlar egiluvchanlik va tezkorlikni rivojlantirish uchun. U yoki bu testlarning qo'llanilishi to'g'risida quyida batafsilroq ma'lumot beriladi.

Mazkur tajriba 14-sonli umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'tkazilgan pedagogik tajriba materiallari keltirilgan bo'lib. Nazorat guruhi Xiva tumanidagi 14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab muassasasida tarbiyalanuvchi tengdosh bolalardan iborat edi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirish uchun o'n hafta davomida olib borildi (20 ta o'quv darsi, 18 xil harakatli o'yin).

Pedagogik tajribani rejalashtirish quyidagicha amalga oshirildi. Tajribani boshlashdan avval hamma bolalar jismoniy sifatlari orgnizmnini rivojlanish darajasining dastlabki holatini aniqlash maqsadida nazorat sinovlaridan foydalaniladi Keyin 25 o'quv kuni davomida tajriba guruhi bolalari 2-ilovada keltirilgan sxema bo'yicha bolalarni jismoniy xolati va sifatlardan birini ko'proq rivojlantirish bo'yicha tanlangan harakatli o'yinlarni bajardilar. 20 kunlik tajriba davri tugaganidan keyin bolalar yana nazorat mashqlarini, topshiradilar, bundan asosiy maqsad , dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan pedagogik tajribaning natijalariga baho berishdan iborat. Navbatdagi jismoniy sifat xuddi shu uslubda keyingi 2 kun, mobaynida tadqiq etildi. Shu tariqa jami 2 xil jismoniy sifatni tekshirish 20 o'quv kuni davomida amalga oshirildi.

Nazorat va tajriba guruhidagi 7-8 yoshli bolalar holatining dastlabki ko'rsatkichlarida aniq tafovutlar kuzatilmadi. Shuning uchun pedagogik tajriba natijalarini bundan so'ng tahlil qilishda biz faqat yakuniy natijalarni taqqoslaymiz

Bolalarni ko'proq haratdagi mashqlar orqali qiziqtirishimiz, ularni shu muhitga olib kirishimiz lozim bo'ladi. Buning uchun biz maxsus harakatli o'yinlardan foydalanishimiz lozim.

Tezkorlikni rivojlantirish uchun

„ Tezda bosib o't'’

„ Yaralanma'’

„ Qo'lim pishdi'’

„ Uni tezda tut'’

„ Estafeta'’

Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun

„ Aldamchi to'p'’

„ Arqon tugunini yechish'’

„ Oldinga va orqaga umbaloq oshish'’ kabi harakatli o'yinlardan foydalandik.

Xulosa; Ushbu makolada maktab yoshdagi bolalarning egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishiga ko'ra rejalshatirilgan harakatli o'yinlardan foydalanishning samaradorlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan pedagogik tajriba materiallari takdim etilgan.

7-8 yoshli bolalarning turli yosh jins guruhlarida o'tkazilgan pedagogik tadqiqotlar turli jismoniy sifatning takomillashuvi jarayoniga pedagogik tajribaning ta'sir ko'rsatishi xususiyatlarinigina emas, balki ulardagi o'zgarishlarning yosh xususiyatlari jismoniy holati, sog'lig darajasni ham aniqlash uchun imkoniyat yaratib berdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdumannotov. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy xislatlarni shakillantirishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish. Samarqand 1998.
2. Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Darslik. Toshkent O'zDJTI, 2005 yil, 300 bet.
3. Salomov R.S jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati Toshkent 2014 1jild
4. Salomov R.S jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati Toshkent 2015 2 jild

QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI TEZKOR-KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Nurmetov Soliyjon Raxmonbergan o'g'li
UrDU Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

Annototsiya: *Hozirgi paytda yengil atletikaning har xil turlari bilan nafaqat erkaklar, balki xotin-qizlar ham shug'ullanadi. Yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish bo'yicha sportchilar o'rtasida muntazam jahon chempionatlari o'tkazib kelinadi. Sportchilar bilan ishlash trenerdan ularning organizmi to'g'risida ma'lum bir bilimga ega bo'lishni taqozo etadi. Ayollar organizmining xususiyatlarini trenirovka jarayonini tuzishda hisobga olish juda muhimdir.*

Kalit so'zlar: *Yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, jismoniy mashq, organism, jismoniy holat, mashg'ulot.*

Annotation: *Currently, not only men, but also women are engaged in various types of athletics. Regular world championships are held among athletes in walking, running, jumping, and throwing. Working with athletes requires the trainer to have certain knowledge about their body. It is very important to take into account the characteristics of the female body when designing the training process.*

Key words: *Walking, running, jumping, throwing, physical exercise, organism, physical condition, exercise.*

KIRISH

Yurtboshimiz tomonidan sportga jalb qilish va ularning tarkibidan sport bo'yicha kadrlar tayyorlash masalasiga oid yana bir nozik va xayrli ish amalga oshirildi. Qishloq sharoitida sportchilarni qo'llab quvvatlash ularni sport sohasiga jalb qilish ishlari olib borilmoqda. Zero yoshlar jismonan, aqlan sog'lom bo'lsalar kelajagimiz poydevori mustaxkam bo'lishi aniq. Shuning uchun bu mavzu qizlarimizni sportga ayniqsa yengil atletikaning qisqa masofaga yugurish turlariga jalb qilish va qizlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish ayniqsa harakat malakalarini shakllantirish tezkor kuchni rivojlantirish maqsadida bu mavzu tanlab olingan.

NATIJA

Xarakatlarni tez bajara olish yengil atletikachining muhim fazilatlaridan biridir. Tezkorlik sakrovchining deqsinishi, uloqtiruvchilarning siltashi, sprinterning yugurishi uchun zarur bo'libgina qolmay, balki tezkorlik bosh fazilat hisoblanmagan atletlarga ham zarurdir. Yuqori darajadagi tezkorlik tezligi kam harakatlarni osonroq bajarishga imkon beradi. Bu esa ishning ko'proq vaqt davom etishiga yordam beradi.

Sportchining harakat tezligiga birinchi navbatda muskullarning taranglashtirib va bo'shashtirib turadigan harakatlarni yo'lga solib va boshqarib turadigan bosh miya qobig'ining tegishli nerv faoliyati sabab bo'ladi. Bu faoliyat ko'p jixatdan sportchining sport

texnikasi qanchalik takomillashganiga, muskullarning kuchi va elastikligiga, bo'g'inlarining harakatchanligiga, uzoq davom etgan ish paytida esa, uning chidamliligiga bog'liq. Tezkorlik - tug'ma fazilat, masalan, tug'ma qobiliyat bo'lmasa, qisqa masofada yuguruvchi bo'lish mumkin emas degan fikrlar hali ham uchrab turadi. Albatta tabiiy moyillik va tug'ma imkoniyatning muayyan ahamiyati bor, ammo bosh rol o'ynaydigan - tarbiya, o'rganish va taraqqiyot topishdir. Tizimtik ko'p yillik trenirovka jarayonida har qanday sportchi tezkorlik fazilatini nihoyat darajada oshirib olish mumkin. Harakat tezligini (ayniqsa o'yinlar yordamida) 10 - 12 yoshdan rivojlantiri boshlash kerak. Harakat tezligini oshirishning eng muhim tomoni – yugurish, sakrash va uloqtirish mukammal texnikasini egallashdir. Bunga faqat o'rganish jarayonidagina erishib bo'lmaydi. Mashqlarni ko'p martalab takrorlayverish, xatto mashq texnikasini to'la o'zlashtirib olgandan keyin ham takrorlayverish zarur. Takrorlash (masalan, 10 – 15 X 100 - 150 m, 30 - 60 marta yadro itqitish, diskni 30 - 40 marta uloqtirish, langarcho'p bilan 30 marta sakrash) maksimaldan pastroq (maksimumning 9/10 qismicha) kuchlanishda bajarilishi kerak. Bunday takrorlashlar ayniqsa sprinterlar va g'ov osharlar uchun kerakdir. Bularda yugurish tezligining ortishi, avvalo, faqat harakat texnikasidagi juda murakkab nerv-musku koordinatsiya qaror topgani va ruhiy ishtiyoq natijasidagina emas, balki ular nihoyat darajada mustahkam bo'lgan taqdiridagina ro'y beradi. Bunga esa bir mashg'ulotda 100 - 110 - 150 - 200 m ni maksimal tezlikka yaqin tezlikda ko'p martalab yugurib o'tish natijasida erishiladi. Sprinterlar uchun 50 - 60 metrli qiya (2 - 3) yo'lkada yugurish samaraliroq. Yugurib kela turib, 30 - 50 m ga qiya yo'lkadan yugurib ketganda turg'unlashib kolgan maksimal tezlik ortadi. Yuguruvchi tezroq tepshinishga o'rgatadi, burilishdan to'g'ri yo'lkada chiqishda jadalroq qadam tashlaydigan bo'lishadi. Lekin yengillashtiradigan sharoitda bajariladigan qiya yo'lkada yugurish gorizontal yo'lkada yugurishga to'la o'xshash emas. Shuning uchun u sprinter trenirovasining oz qisminigina tashkil etishi mumkin .

Sur'atini tezlasha boradigan ritmik baland tovush yordamida ham yugurish va harakatda turg'unlashib qolgan maksimal tezlikni oshirish mumkin. Chunki sprinter o'z qadami jadalligini tovush sur'atiga moslab tashlashga intiladi.

Bir mashqda trenirovka qilish natijasida sportchining tezkorligi ortgandan keyin, u boshqa mashqlarni ham tez bajara oladimi yo'qmi ekanini bilish muhimdir. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, hosil bo'lgan tezkorlik harakat strukturasi o'xshash bo'lmagan boshqa mashqlarga o'tmaydi. Masalan, sprintda trenirovka qilish natijasida telegraf kaliti bilan ishlash chastotasi oshmaydi. Boshqarilishi o'xshash bo'lgan harakatlarda esa bunday emas. Sprintcha yugurishda hosil bo'lgan tezkorlik fazilati, sakrashda depsinishga va uloqtirishda oyoqni to'g'rilash harakatiga o'tadi.

100 m ga yugurish. 100 metrlik masofani imkoniyat boricha maksimal tezlikda yugurib o'tish kerak. Bunday tezlik har doim maksimal ish quvvati bilan aniqlanmaydi. Har qaysi sprintchi ortiqcha kuchanmay, engil yugurganda erishgan eng yuqori tezligi, shu sprintchining maksimal tezligi bo'ladi. Eng zo'r masterlar ish quvvati maksimal bo'lganda maksimal tezlikka ham erishadigan bo'ladilar .

Startdan tez yugurib chiqish 100 m ga yugurishda (tezroq maksimal tezlikka erishib olib, imkoniyat boricha uni marragacha saqlab borish uchun) jo'shqin tezlanishga aylanib ketadi. Biroq 100 metrda yugurishda ham o'sib borayotgan charchash sababli masofaning oxirida tezlik bir qancha pasayadi. Ammo qanchalik yaxshi mashq ko'rilgan bo'lsa, charchash shunchalik kech boshlanadi.

200 metrda yugurish. 200 metrda yugurish texnikasi startning joyi va masofaning yarmi yo'lkaning burilishida ekani bilan 100 metrda yugurish texnikasidan farq qiladi. Startdan keyingi masofani ko'proq qismini to'g'ri chiziq bo'ylab yugurib o'tish uchun start tirgaklari burilishga urinma chiziqda yo'lkaning tashqi chetiga o'rnatiladi. Yuguruvchi burilish bo'ylab yugurayotganida butun tanasi bilan ichkari tomon og'ishi kerak, aks holda egri chiziq bo'ylab yugurayotganda hosil bo'ladigan markazdan qochuvchi kuch uni chetga chiqarib yuboradi. Bunday og'ish yugurish tezligi o'sa borgan sari va burilish radiusi kamaya borgan sari orta boradi. Yuguruvchi markazdan qochuvchi kuch ta'sir eta boshlashini kutmay, balki uning boshlanishiga yo'l qo'ymay, oldindan gavgani asta-sekin ichkarilatib, chapga og'dira borsa, shundagina burilishga to'g'ri kirib borgan bo'ladi. Yuguruvchi mumkin qadar maksimal tezlikka erishgandagina tanasining chapga qiyaligini orttirishni to'xtatadi va shu daraja og'ishni burilishning qolgan qismini oxirigacha saqlab boradi. Burilishda yugurishni engillashtirish uchun, oyoq taglarini chapga yo'lka raxi tomonga burib qo'ygan yaxshi. Qo'llarning harakati ham to'g'ri yo'lka bo'ylab yugurishdagidan farq qiladi. O'ng qo'l ko'proq ichkariga, chap qo'l esa ko'proq tashqariga harakat qiladi.

Burilishda yugurayotganda oyoq tagini yo'lka raxidan yoki chap tomondagi oq chiziqdan 8-10 sm oldinroq qo'yishga intilmoq kerak.

Burilishdan to'g'ri yo'lka chiqishni ham bilish kerak. Bu erda yuguruvchi tana qiyaligini kamaytirish uchun burilish tamom bo'lishini kutmaydi, burilishning oxirgi metrlaridayoq tana qiyaligini kamaytira boshlab, to'g'ri yo'lga chiqish paytida esa gavgasini to'la to'g'irlab oladi. 200 metrda yugurayotganda o'sib borayotgan tanglikni «tushirish» uchun burilishdan chiqish paytida eng zo'r kuch kelishdan kutulganday 2-3 qadam tashlab, keyin yana marragacha to'liq kuch bilan yugurishni davom ettirish kerak.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, sprintchi 200 metr oxirigacha maksimal tezlikda yugurib o'tishga qanchalik urinmasin, masofa oxirida, ayniqsa ikkinchi 100 metrda tezlik bari bir susayadi. Shu bilan birga, qadamlar uzunligi ham kamayadi.

400 metrda yugurish. 400 metrda yugurish texnikasi asosan sprintchasiga erkin qadam tashlashdan iborat bo'lib, faqat bunda tezlik maksimal bo'lgandagiga nisbatan kamroq jadallikda yuguriladi. Gavda 100 metrda yugurishdagidan kamroq engashadi, qo'llar ham sekinroq harakat qiladi. Qadamlarning uzunligi 7-8 oyoq tagi uzunligigacha qisqaradiyu, yuguruvchi keng va erkin harakat qilishdan kechmaydi.

Startdan yugurib chiqish xuddi 100 metrda yugurishdagidek boshlanadi. 400 metrlik masofa uchun kerak bo'lgan tezlikka yetishib olgandan keyin, yuguruvchi bemalol qadamga o'tib, erishilgan tezlikni mumkin qadar uzoqroq saqlab qolishga harakat kiladi. Lekin sportchi qanchalik mashq ko'rgan bo'lmasin, uning tezligi, borgan sari o'sayotgan

charchash sababli, pasayib boradi. 400 m masofani har holda bir xil sur'atda yugurib o'tishga intilish kerak bu birinchi 200 m bilan ikkinchi 200 m ni o'tishga ketgan vaqtdagi farq katta bo'lgandagiga nisbatan yuqoriroq natija ko'rsatishga imkon beradi. 400 metrga yugurishdagi tezlik egri chizig'i birinchi 100 metrlikning boshlanishida juda tez va yuqori ko'tariladi, ikkinchi 100 metrlikda qariyb o'sha darajada qoladi, uchinchi 100 metrlikda sekin va oxirgi 100 m keskin pasayadi. Marraga 70-50 metr qolganda tezlik ayniqsa ko'p pasayadi. 400 metrga yuguruvchi birinchi 100 metrlikni faqat 100 metrga yugurganida ko'rsata oladigan vaqtiga nisbatan atigi 0,3-0,5 sekund sekinroq yugurib o'tishi kerak. Yaxshi mashq ko'rgan sportchi 400 metr masofaning birinchi 200 metrini o'zining 200 metrdagi shaxsiy rekordidan 1,3-1,8 sekundgina ortiqroq vaqtda yugurib o'tishi kerak.

XULOSA

1.Organ va tizimlarni mustaxkamlash, organizmning funktsional imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish kerak degan xulosaga kelindi.

2.Sportchi talaba qizlarda giperkompensatsiya (funktsional imkoniyatlarini yuklamagacha bo'lgan darajasini ortirish bilan tiklash) vositasida eng yuqori funktsional imkoniyatlar darajasiga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonxo'jayev T.S.,Raximov M.M.,Qudratov R.Q., Meyliyev X.A.,Rasulova T.P.,Qurbanov S.Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari.T.,O'qituvchi 2005. 350b.

2. Шокиржонова К.Т. Енгил атлетика (мусобақа қоидалари). Ўқув қўлланма. Т., Лидер Пресс, 2007. 352 б.

3. Qudratov R.Q. Sakrash texnikasi asoslari.Talabalarning mustaqil ishi uchun ma'ruza.T., O'zDJTI,1989.26 b.

4. Qudratov R.Q. Sportcha yurish va yugurish texnikasi asoslari.Talabalarning mustaqil ishlari uchun qo'llanma. O'zDJTI,1992.18 b

THE BASIC PRINCIPLES OF RESEARCH IN THE THEORETICAL TRANSLATION

Sabirova Nafisa

*A student of Master's degree in UzSWLU
Department of the Linguistics of English language*

Abstract: *This paper is aimed at providing the main notions of translation theory, the object of research, and the methods of analysis of translation theory. Opinions on the importance of translation among different peoples, the concept of translation, and its types are discussed. It provides structured key features of Translation Studies as a discipline and explores the evolution of translation as a concept, a product, and a practice as well as considering the role of the translator in society and history. However, various examples of translation types are given in the article. Also, current research conveys the role of words in the context, theoretical perspectives of the context, and analyzes certain types of translation change and its results.*

Key Words: *Translation Theory, Methods of Translation Theory, Concept of Translation, Scientific And Critical Study, Translation Practice, words, expressions, context.*

The systematic study of the theory, description, and application of translation, interpreting, and localization is the focus of the academic inter discipline known as translation studies. Translation studies is an interdisciplinary field that draws heavily from other disciplines. Translation theory is really based on aims at determining, categorizing, and utilizing general principles of the translation process in relation to its major issues. Translation is a special case of communication because sender and receiver do not share the same code and the translator recodes the message from the sender into the receiver code. The main issue of translation is based on sustaining the original message despite that there is generally no one-to-one correspondence between the signs of the two different code systems. In this era of revolutionary technological advancement, translation of scientific and technical texts is crucial. Nowadays, it is rare to find a translator or interpreter who has not dealt with technical issues. In fiction or even poetry, even the "pure" literary translator frequently encounters highly technical material. The training of technical translators is a significant practical issue, and a thorough theoretical analysis of the distinctive characteristics of technical translation is an essential goal of translation linguistics. The basic objective of technical translation is to pinpoint the condition that was originally described. The prevalence of the referential function presents a significant obstacle to the translator, who needs to have a solid understanding of the technical vocabulary and enough time to complete the translation. In addition to this information, concept of translation consists of two types.

The product – the text that has been translated

The process- the act of producing translation .

Translation is the process of reworking text from one language into another to maintain the original message and communication. But, like everything else, there are different methods of translation, and they vary in form and function. Translation is necessary for the spreading new information, knowledge, and ideas across the world. It is absolutely necessary to achieve effective communication between different cultures. In the process of spreading new information. There are some principles of translation.

Literal: the syntax is translated as close as possible in the TL

Word-for-word: the SL word order is maintained the translation of cultural words is literally.

Semantic. it differs from faithful translation in the aesthetic, the beautiful aspect only in the SL.

Free: this process consists in paraphrasing the original with longer sentences which is also called intralingual translation. Newmark though defines it as pretentious.

Adaptation: it is used for poetry, plays. The main sense is maintained but cultural words.

Communicative: this type of translation is the one that tends to reproduce the exact meaning of the SL into account not only language but the content, so that they are closer to the original.

Three categories of the translation theories (diachronically).

☐ Translation theories based on Source- oriented approaches

☐ Linguistic translation theories

☐ Recent translation theories (target-oriented approaches).

From these categories to learn that translation, as a type of speech, is translated from a linguistic point of view, that is, the process of translation means the translation of one wish into another language. The theory of regular correspondences was the name given to their hypothesis. They claimed that translation is impossible without a solid linguistic foundation, which may be created by a comparative study of linguistic events and the identification of specific correspondences between the originating language and the target language. A typology of links between language units (equivalents - permanent correspondences, insensitive to context) was the main focus of this theory's creators. This is the linguistic process of translation between two different languages. Moreover, "translation" can be considered as a kind of transformation. It follows that the subject of translation theory is the study of scientific views on interlinguistic transformations, that is, the process of translation, and its object is the existing translations. In conclusion, theoretical translation method the process of interaction and interaction between the literatures of different peoples. Translation, as a necessary tool for the development of languages, accelerates their development, increases and improves the vocabulary. Theoretical translation enriches a person's spiritual life, realizes the potential of the native language, enriches it. Translation sharpens the reader's mind and enriches it with new

ideas and concepts. It describes that to establish new attitudes and views in society and it has a positive effect on the culture and spirituality of different peoples.

REFERENCES:

- [1] Nazarova D.I. The interpretation of educational ideas in the poems of Jamal Kamal// International Scientific Journal Theoretical & Applied Science.
- [2] Nazarova D.I. Literary Motives of Sufizm and Spiritual, Moral Ideas in the Lyrics of Jamal Kamal//International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE).
- [3] Dilrabo Quvvatova, Nazarova D.I. The rubai genre in the works of Jamal Kamal// The American Journal of Social Science and Education Innovations.- 2020.
- [4] Nazarova D.I. Jamol Kamolning Asru radifli g'azaliga yozgan muxammasi// Ilim ham ja'miyet. Ilmiy-uslubiy jurnal.– 2020.
- [5] Nazarova D.I. The foundation of Kamol Jamol's poems is pain// Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution.- 2020.
- [6] Nazarova D.I. Feelings of lyric heroes in Kamol Jamol's work// Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution.– 2020.
- [7] Akhmedova Mekhrinigor Bakhodirovna. (2020). "SPIRITUALITY" LANGUAGE CATEGORY AND ITS CONTENT. Middle European Scientific Bulletin, 6, 57-59.
- [8] Akhmedova Mekhrinigor Bakhodirovna. "'SPIRITUALITY' LANGUAGE CATEGORY AND ITS CONTENT". Middle European Scientific Bulletin.
- [9] Akhmedova, M. B. (2019) "ANALYSIS OF —SPIRITUALITY? CATEGORY AND ITS STRUCTURE IN THE ENGLISH LANGUAGE," Central Asian Problems of Modern Science and Education.
- [10]M.B. Ahmedova. Genetic and Structural Specifications of tge Spirituality Nominative Units in the Uzbek Language. - Theoretical and Applied Science, 10 issue. 2018.
- [11]Nilufar Ulmasovna Ochilova, Mehrinigor Bahodirovna Ahmedova. Reflecti [1] Nazarova D.I. The interpretation of educational ideas in the poems of Jamal Kamal// International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. - 2019.

Barno Masharipova

Nukus Davlat Pedagogika Instituti

2- bosqich magistranti

Kalit soʻzlar: *motivatsiya, kasbiy motivatsiya, qadriyat, shaxs faolligi, shaxs faolligining tashqi manbalari.*

Ключевые слова: *мотивация, учебные мотивы, ценностные ориентации, личностные свойства, направленность на деятельность, направленность на результат, направленность на процесс.*

Key words: *motivation, learning motives, value orientations, personal characteristics, focus on activity, focus on result, focus on process.*

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar taʼlim jarayoni, kadrlar tayyorlash tizimini ham tubdan yangilash hamda rivojlantirishni talab etadi. Shu boisdan taʼlim tizimini zamon talablari darajasida va erishilgan tajribalar asosida rivojlantirish orqali oʻsib kelayotgan yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, har tomonlama etuk va yuksak maʼnaviyatli, komil insonlar etib tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi. Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega boʻlgan masala hisoblanadi [1], – deb taʼkidlagan Sh.M.Mirziyoev. Shunday ekan, yoshlarning, kelajak avlodning kasbiy etukligi, toʻgʻri kasb tanlashi va mohirona olib borishiga eʼtibor qaratilishi hozirgi kunnig dolzarb masalalaridandir.

Zamonaviy taʼlim tizimida talabalarni tayyorlashni takomillashtirish bitiruvchilar tayyorgarligining koʻplab omillari va ularning kasbiy faoliyatga real tayyorlik darajasi bilan shartlangan. Ular orasida pedagogik oliy oʻquv yurtlari talabalarining oʻqishga oid faoliyat motivatsiyasi oʻta muhim hisoblanadi. Pedagogik oliy oʻquv yurtlarining taʼlimiy jarayonida bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga oʻsib boruvchi talablar va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning real darajasi oʻrtasidagi ziddiyat yaqqol koʻrinadi. Zamonaviy taʼlim tizimida talabalarni tayyorlashni takomillashtirish bitiruvchilar tayyorgarligining koʻplab omillari va ularning kasbiy faoliyatga real tayyorlik darajasi bilan shartlangan. Ular orasida pedagogik oliy oʻquv yurtlari boʻlajak tarbiyachi-pedagog talabalarining oʻqishga va ishga oid faoliyat motivatsiyasi oʻta muhim hisoblanadi.

Shaxsiy kasbiy motivatsiyasi oʻzi va boshqa odamlarni kasbiy muvaffaqiyatga erishishga ragʻbatlantirish jarayoni sifatida ham gavdalanishi mumkin. Bundan tashqari, kasbiy faoliyat motivatsiyasi kasb tanlashni va bu kasb bilan bogʻliq majburiyatlarni davomiy bajarishni shartlaydigan aniq undovchi taʼsir sifatida ochib berilishi mumkin [4]. Kasbiy motivatsiya nafaqat kasbiy yoʻlni toʻgʻri tanlangani va mehnatga oid faoliyat mahsuldorligini, oʻz mehnatining natijalarini qondirish darajasini, balki kasbiy taʼlimning

muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu fakt shu bilan tushuntiriladiki, tahsilning samarali jarayoni, kamida ikkita omil – kognitiv sohalari va shaxs motivatsion sohasining rivojlanish darajasi bilan shartlangan. Bu fikr oliy maktab talabalarining kasbiy motivatsiyasining ifodalanganlik darajasi va intellektual qobiliyatlarning rivojlanish darajasi qator empirik tadqiqotlari bilan tasdiqlanadi. Demak, A.A.Rean [5] tadqiqotlaridan biri davomida quyidagi natijalarni oldi. Talabalar –bo'lg'usi pedagoglar guruhida umumiy intellekt shkalasi bo'yicha test o'tkazgan va mazkur testlashni o'qishga oid o'zlashtirish darajasi bilan solishtirgan aniqlandiki, intellektning o'qishga oid o'zlashtirish bilan na maxsus predmetlar bo'yicha, na umumta'lim fanlarining bloki bo'yicha hech qanday ahamiyatli aloqasi yo'q. Bu fikr boshqa tadqiqotlarda ham o'z tasdig'ini topdi [5] Yana bitta ahamiyatli qonuniylik aniqlandi: "kuchli" va "zaif" talabalar intellekt darajasi bo'yicha emas, balki o'qishga oid faoliyat motivatsiyasining kuchi, sifati va turi bo'yicha farq qilarkanlar. "Kuchli" talabalar uchun ichki motivatsiya kuchli: ularga kasbni yuqori darajada o'zlashtirish xos bo'lib, mustahkam bilim olish va amaliy malakalarga ega bo'lishga mo'ljal oladilar. "Zaif" talabalarga kelsak, ularning motivlari asosan tashqi, vaziyatli: bunday talabalar uchun, birinchi navbatda, yomon o'qishlari uchun muhokama qilish va jazolashdan, stipendiyadan mahrum bo'lmaslikdan va h.k. dan qochish muhim. Agar kasbiy motivatsiya tuzilmasi haqida gapiradigan bo'lsak, bu yerda kasbga ijobiy munosabat o'ta muhim rol o'ynaydi, chunki bunday munosabat ta'limning yakuniy maqsadi bilan bog'liq. Boshqacha aytganda, agar talaba kasbini ongli tarzda tanlagan bo'lsa va uni o'ziga bo'lganiday jamiyat uchun ham ahamiyatli deb hisoblasa, bu, shubhasiz, kasbiy tayyorgarlik natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oliy o'quv yurtlari talabalarining kasbga bo'lgan munosabatlarini aniqlash bo'yicha olib ma'lumotlariga ko'ra [3; 5] xulosa qilish mumkinki, ko'proq 1-bosqich talabalari tanlagan kasblaridan mamnunlar. Biroq barcha o'quv yili davomida bu ko'rsatkich bitiruv bosqichiga qadar doimiy ravishda pasayib boradi. Oliy o'quv yurtini tugatishga ozgina qolishiga qaramay kasbidan qoniqish eng kam, kasbga munosabatning o'zi ijobiy bo'lib qolaveradi. Bunday natijalar sababi – bu, bir tomondan, muayyan oliy o'quv yurtlarida ta'lim berishning yuqori bo'lmagan darajasi, boshqa tomondan esa – birinchi bosqich talabalarida romantik tasavvur va kasb egallashning real usullarini bilmaslikning ustunlik qilishi bo'lishi mumkin, desa ham bo'ladi. Shunday qilib, bo'lajak tarbiyachi – pedagog talabaning o'qishga oid-kasbiy motivatsiyasini susaytiruvchi dastlabki salbiy omillar orasida mazkur kasb to'g'risida oldin mavjud bo'lgan tasavvurlarning talaba oliy o'quv yurtida uchratganlariga muvofiq emasligini aytish mumkin. Qator empirik tadqiqotlar ko'rsatdiki, ikkinchi omil –bu muntazam ravishdagi va zo'r g'ayrat talab qilinadigan o'quv faoliyatiga yetarlicha tayyor emaslikdir. Keyin bo'lajak tarbiyachi-pedagog talabada o'qish va kasbga oid motivatsiyaning pasayishi omili sifatida boshqa ixtisoslikka o'tishga intilish va o'qishga umumiy ijobiy munosabat bo'lgan taqdirda alohida o'quv fanlariga salbiy munosabat yuzaga kelishi mumkin. Oxirida, odatda, kelajakda kasbiy faoliyatda samarali bajarish uchun yaxlit kasbiy ta'lim tizimida muayyan o'quv fanining o'rnini va uni o'rganish davomida shakllanuvchi bilim, malaka, ko'nikmalar ahamiyatini

tushunmaslik paydo bo'ladi. Biz qanday omillar bo'lajak tarbiyachi-pedagog talabani o'qish va kasbga oid faoliyati motivatsiyasini pasayishiga olib kelishini aniqlab oldik. Talabalar, shu jumladan, talaba-pedagoglarning o'quv-kasbiy faoliyatini tanlash va amalga oshirishni shartlovchi omillar to'g'risidagi masala ochiq qolmoqda. Bu savolga javobni shaxsning faolligi manbaini aniqlab va shaxsning o'qishga va kasbga oid faoliyati motivlarining turli-tuman tasniflarini ko'rib chiqib topish mumkin. Shaxs faolligini tashqi va ichkiga ajratish qabul qilingan. Ichki manbaga bilishga oid va ijtimoiy ehtiyojlar (ijtimoiy jihatdan ma'qullanadigan harakatlar va yutuqlarga intilish), qiziqishlar ustanovkalar, namuna va stereotiplar hamda o'z-o'zini mukammallashtirishga intilish, o'qish va boshqa faoliyat turlarida o'zini namoyon qilish hamda o'z-o'zini ro'yobga chiqarish ehtiyoji bilan shartlanadigan boshqa jihatlar kiradi [3]. Bu yerda real Men obrazining shaxs ideal obraziga muvofiq kelmasligi faollikni harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Shaxs faolligining tashqi manbalari – o'quvchining talab, ko'nikma va imkoniyatlari tegishli bo'lgan hayotiy faoliyati shartidir. Bo'lajak tarbiyachi-pedagog talabalar axloq, muloqot va faoliyatning ijtimoiy me'yorlariga amal qilish zaruriyati bilan bog'liq [5]. Ko'nikma jamiyatning o'qishga munosabatini inson tomonidan qabul qilinadigan va unga o'quv faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengib o'tish imkonini beradigan axloq me'yorlari sifatida xarakterlaydi. Imkoniyatlar – bu o'quv faoliyatini avj oldirish uchun zaruriy ob'ektiv shartdir (maktablar, darsliklar, kutubxonalar va h.k.larning mavjudligi). Bu holatda inson rivojlanishining shaxsiy rivojlanishi va u yashayotgan jamiyatning ijtimoiy ekspektatsiya darajasining mos kelmasligi shaxsiy faollikni harakatga soluvchi kuch bo'ladi. O'qish va kasbga oid motivlar tasnifi juda ko'p ekanligi faktiga e'tiborni qaratamiz. Mazkur ish doirasida biz nazarimizda o'zida birmuncha ahamiyatli bo'lgan motivlarni olgan bir nech tasnifni ko'rib chiqamiz, xolos. Demak, yuqorida sanab o'tilgan faollik manbalari asosida motivlarning quyidagi guruhlar ajratiladi [1]:

- ijtimoiy (o'qishning ijtimoiy ahamiyatini anglash, o'qishning shaxsiy-rivojlantiruvchi qiymatini tushunish, dunyoqarash va olamni tushunishni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj va boshqalar);

- bilishga oid (bilim olishga qiziqish, qiziquvchanlik, bilishga oid qobiliyatlarni rivojlantirishga intilish, intellektual faoliyatdan lazzat olish va boshqalar);

- shaxsiy (o'z-o'zini hurmat qilish va shahratparastlik tuyg'usi, tengdoshlari o'rtasida obro'dan foydalanishga intilish, referent bo'lgan sinfdoshlarga taqlid qilish, o'ziga xos bo'lishga urinish va boshqalar).

O'qishga motivatsiyaning dastlabki ikki turida orientatsiya jarayonga yo'naltirilgan. Shaxsiy motivlar ustunlik qilgan holatda motivatsion orientatsiyalar natijaga va atrofdagilarning reaksiyasiga, jumladan, o'qituvchi bahosiga yo'naltirilgan. Diqqatga sazovor joyi shundaki, empirik tadqiqotlarning biri davomida talabalarning motivatsion orientatsiyalari va ularning akademik o'zlashtirishlari o'rtasidagi aloqa yuzasidan [5] quyidagilar aniqlandi: o'zlashtirish bilan birmuncha puxta aloqa ularning jarayonga va natijaga orientatsiyasi, kamroq puxta aloqa –o'qituvchining bahosiga bo'lgan orientatsiya

ekan. Keltirilgan tasnifda kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasini rivojlanishi uchun birmuncha ko'maklashuvchi motivatsiya, bizning nazarimizda, ijtimoiy va bilishga oid motivatsiyalardir. Bilishga oid va ijtimoiy motivatsiyalar birmuncha chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga ko'maklashadi. D.Yakobson [2] yaratgan o'qishga oid faoliyat tasniflaridan biri bo'yicha motivlar 2 ga ajratiladi: o'quv vaziyatiga bog'liq bo'lmagan motivlar va o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan motivlar.

1. O'quv vaziyatiga bog'liq bo'lmagan motivlar:

kasb tanlashdagi tor ijtimoiy motivatsiya (inkor etadigan motivatsiya) – bu yerda ota-onalar, bu sohada vakolatli bo'lgan odamlar bilan ijtimoiy barobarlashtirish yetakchi motiv yubora bo'ladi, shuningdek, omadsizlikdan, ota-onalar, yaqinlar oldidagi mas'uliyat, burchdan qochish motivlarining ustunlik qilishi xosdir; umumijtimoiy motivatsiya – o'qishga oid faoliyatga undash boshqa odamlarga foyda keltirishga ehtiyoj asosida yotadi; pragmatik (cheklangan shaxsiy) motivatsiya, unda faoliyatga undash – bu kasbning ijtimoiy nufuzi va karerada o'sish imkoniyatidadir.

2. O'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan motivlar: bilishga oid motivatsiya – o'qishni shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan intilishi boshqaradi; kasbiy motivatsiya, bunda talabada tanlangan kasbga, uning mazmuni va ijodiy imkoniyatlariga qiziqish; mazkur kasbda ishlash uchun o'z qobiliyatlariga ishonch bor; shaxsiy o'sish motivlari – bu holatda o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirishga intilish o'quv faoliyati jarayonini boshqaradi. Talabalarning o'qishga oid faoliyati motivatsiyasi xususiyatlarini o'rganish maqsadida quyidagi vazifalarni hal qiladigan tashhisiy dastur ishlab chiqildi: talabalarning o'qishga oid faoliyatini yetakchi motivlarini aniqlash; talabalarning o'qishga oid faoliyati motivatsiyasi va ularning kasbiy yo'nalganligi o'rtasida aloqa o'rnatish; talabalarning o'qishga oid faoliyati motivatsiyasi va ularning shaxsiy yo'nalganligi o'rtasida aloqa o'rnatish; talabalarning o'qishga oid faoliyati motivatsiyasi va ularning qadriyatli orientatsiyasi bilan aloqa o'rnatish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bo'lajak tarbiyachi-pedagog talaba shaxsining motivatsion sohasini rivojlantirishning sifatli xususiyatlari shaxsiy va kasbiy yo'nalganlik, qadriyatlar yo'nalganligiga bog'liq. Shaxsning motivatsion sohasi faoliyat bilan belgilanadi. Faoliyat rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish komponenti bo'lishi uchun nafaqat uning mazmuni xarakterini chuqur tushunish, balki shaxsning motivatsion tomonini doimo takomillashtirish muhim. Motivatsion sohani chuqur bilish va tushunish muvaffaqiyatni, bo'lajak tarbiyachi-pedagog shaxsining faolligini uning rivojlanishini kerakli oqimiga yo'naltirishni ta'minlashi mumkin. Shundagina o'z kasbini yetuk, mohir, professional egasi bo'lib yetishida asosiy qadamlardan birini tashlagan bo'ladi. Harqanday ishni, kasbning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bor, bulardan muommosiz o'ta olishga esa albatta insonda o'zining kasbga bo'lgan muhabbat va ichki motivatsiyasi bo'lishi katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

